



Ijtimoiy faollik talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida

Tursunova Dilnavoz To'liq qizi –

Farg'ona davlat universiteti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: doctortursunova@gmail.com | Tel: +998 91 676 04 94

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi. Xususan, ayollarning huquqiy madaniyati hamda huquqiy savodxonligini yuksaltirish, iqtisodiy faoliyatini kengaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada davlat siyosati, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining xotin-qizlar faolligini oshirishdagi o'rni hamda bu yo'nalishdagi dolzarb muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, oliy ta'lim, ijtimoiy majburiyat, umuminsoniy qadriyatlar, jamiyatga moslashuv, qonuniy manfaat, tashabbuskorlik..

Социальная активность как приоритетный принцип и важный фактор формирования общественного сознания студентов

Аннотация. В данной статье анализируются проводимые в настоящее время реформы, направленные на повышение социально-политической активности женщин, а также их практические результаты. В частности, освещены вопросы повышения правовой культуры и правовой грамотности женщин, расширения их экономической деятельности, поддержки предпринимательских инициатив, а также совершенствования системы социальной защиты. В статье также рассматриваются роль государственной политики, неправительственных некоммерческих организаций и институтов гражданского общества в активизации женщин, а также актуальные проблемы и предложения по их решению.

Ключевые слова: социальная активность, высшее образование, социальная активность, общечеловеческие ценности, приспособление к обществу, законный интерес, инициатива.

Social activity as a priority principle and important factor in the formation of social consciousness of female students

Annotation. This article analyzes the current reforms aimed at increasing the socio-political activity of women and examines their practical outcomes. In particular, it scientifically explores issues such as improving women's legal culture and literacy, expanding their economic participation, supporting entrepreneurial initiatives, and enhancing the social protection system. The article also discusses the role of state policy, non-governmental organizations, and civil society institutions in promoting women's activism, as well as current challenges and recommendations for their effective resolution.

Keywords: social activity, higher education, social commitment, universal human values, adaptation to society, legal interest, initiative.

KIRISH

Bugungi yangilanayotgan O'zbekistondagi dolzarb murakkab masalalardan biri talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va jamiyatda tutgan o'rni va rolidir. Demokratik jamiyat qurilishi davrida yoshlarning sotsial-siyosiy, ijtimoiy faolligi tobora kuchayib bormoqda. Mamlakatimizda yoshlarning o'qish va ijodiy mehnatda, jamiyat hayotida faol qatnashishlari uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratib berish haqida doimo g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. Talabalik yillari – yoshlar hayotining eng muhim, rivojlanish davridir. Bu davrda yoshlar jismoniy va aktiv jihatdan kamolotga etadilar, hayot ma'nosini chuqurroq, anglaydilar, jamiyatda o'z o'rnini topish yo'lida izlanadilar. Xuddi ana shu davrda yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi. Binobarin, talabalik davri – orzu va ishonchlar, kelajakka intilishlar, bo'lajak rejalarining shakllanish davridir. Ana shu davrda yoshlar ijtimoiy mehnatni to'g'ri baholay oladigan, mamlakat oldidagi vazifalarni, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligini, jamiyat boyliklarining qiymatini, Davlatimiz belgilab berayotgan vazifalarni to'g'ri anglashga

intiladigan barkamol shaxsga aylanadilar. Yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba-qizlar bu xususiyatlarni ijtimoiy hayotda to'la namoyon etish imkoniyatiga egadirlar. Bugungi talaba yoshlar ertangi kunda mamlakatimiz oldida turgan ulug'vor vazifalarni amalga oshirishga tayyorlanayotgan kishilardir. Bugungi talabalar istiqloq mash'alini yoqqan kishilar avlodi, ular yaratayotgan yangi jamiyatni kelajak tomon olib boruvchi yoshlardir. Ular bu boradagi mas'uliyatni doimo esda tutmoqlari kerak. Binobarin, talaba mehnati o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan aqliy mehnat ekan, demak bu mehnat a'lo o'qishda, ilmiy faoliyatda va fan asoslarini ijodiy o'zlashtirishda o'z ifodasini topadi. Bu esa talaba yoshlarning professional faoliyatidir Muhtaram Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kunlardagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustivor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo'lib hisoblanadi: "Bunday keskin va tahlkali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz" Demokratik jamiyat qurilishi davrida yoshlarning sotsial-siyosiy, ijtimoiy faolligi tobora kuchayib bormoqda. Mamlakatimizda yoshlarning o'qish va ijodiy mehnatda, jamiyat hayotida faol qatnashishlari uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratib berish haqida doimo g'amxo'rlik qilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, "faollik" tushunchasi ba'zi hollar, xususan shaxs va uning faoliyatini tadqiq etuvchi fan sohalarida faoliyat tushunchasi bilan qorishtirib yuboriladi. Masalan, "Psixologiya"ga oid lug'atda mazkur tushuncha "tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir, shu asosda faoliyat ko'rsatish bilan xarakterlanadi" - deyiladi.

Psixologlar R.Plomin va X.Xermanslarning (1997) ta'kidlashicha, aslida shaxsning to'laqonli, barkamol shakllanishiga uchta asosiy omil ta'sir etadi.

1. Shaxsda mavjud bo'lgan biologik imkoniyatlar – bunda odamlarning o'zaro munosabatlari jarayonlariga temperament tipining ta'siri nazarda tutiladi.

2. Shaxsning sub'ektiv, ya'ni psixologik imkoniyatlari – bunda mazkur imkoniyatlar shaxslararo munosabatlar jarayonining strategiyasini tuzadi, o'zaro munosabatga kirishishni shaxsan o'zi tanlaydi hamda ijtimoiy turmushda ularni to'ldiradi va takomillashtiradi.

3. Bevosita shaxslararo munosabatlar jarayonining o'zi bo'lib, ular ijtimoiy madaniy muhitda amalga oshiriladi. Ijtimoiy madaniy muhit shaxslararo munosabatlar uchun bosh mexanizm sifatida shaxsning shakllanishini ta'minlaydi. Ammo har uchchala omil ham o'zaro uzviy bog'liqlikda bir-biriga ta'sir etadi. Bu uzviyliksiz shaxsning barkamol taraqqiyoti yuzaga kelmaydi.

Shaxsning faoliyati ijtimoiy muhit va moddiy omillar ta'sirida shakllanadi. Faollik bo'lmagan joyda shaxs rivojlanmaydi va uning imkoniyatlari ro'yobga chiqmaydi. Shaxsning faolligi aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda tarkib topadi. SHaxs faolligining rivojlanish tendensiyalari mehnat, o'qish, o'yin, muloqot jarayonida amalga oshadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy ongini shakllantirishda tutgan o'rni va ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy tahlil jarayonida tizimli, sotsiologik, psixologik hamda pedagogik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati va gender tenglik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, ijtimoiy faollikni rivojlantirishga doir milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida dialektik tahlil, sotsiologik so'rov, kuzatuv, intervyu, taqqoslama tahlil, hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Sotsiologik so'rov orqali oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faollik darajasi, ularning ijtimoiy ong shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, motivatsion va psixologik jihatlari o'rganildi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etishda miqdoriy hamda sifat tahlil uslublari qo'llanildi. Miqdoriy tahlil orqali statistik natijalar umumlashtirildi, sifat tahlil esa ijtimoiy ong shakllanishining ichki mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

Metodologik asos sifatida shuningdek, ijtimoiy faoliyat nazariyasi, shaxsning ijtimoiylashuvi konsepsiyasi, gender sotsiologiyasi hamda faollik psixologiyasi tamoyillari qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar talaba xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni, ularning ijtimoiy ong shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, madaniy va axloqiy omillarni kompleks o'rganish imkonini berdi.

Natijalarining ilmiy ishonchliligi tanlangan metodlarning uyg'unligi, empirik ma'lumotlarning real ijtimoiy muhitga mosligi, shuningdek, tahlil jarayonida qo'llangan nazariy va amaliy yondashuvlarning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari bilan ta'minlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati insonlarning jamiyat hayotiga, mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirishni talab etadi. Endilikda har bir kishi o'zgalarga emas, balki shaxsan o'zining imkoniyatlariga, qobiliyati va iste'dodiga tayanishi kerak.

Zero, talaba-qizlarning ijtimoiy faolligi va tarbiyasining muhim yo'nalishi-g'oyaviy tarbiyadir. Ijtimoiy ongning shakllari bo'lgan fan, din, falsafa, san'at, badiiy adabiyot, axloq va huquq g'oyaviy tarbiyaning manbalari va asosi hisoblanadi. Ular orqali g'oyaviy tarbiyani maqsadli olib borish jarayonining amalga oshishi reallikka aylanadi. Shuningdek, olib borilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonlari talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini dunyoviy, ilmiy bilimlar bilan boyitishga yo'naltirilgach, bu ularning faol hayotiy mavqega ega bo'lishlariga ko'maklashadi. SHu ma'noda, g'oyaviy tarbiya mafkuraviy tarbiyaning poydevori deyishga asos bor.

Shaxs ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlarning tarixiy taraqqiyoti. Shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirish uzluksiz davom etadigan ijtimoiy pedagogik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini tatqiq qilish va aniqlash alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqot doirasida ushbu masalaning tarixi, rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va har tomonlama tahlil qilish talab etiladi. Talabalik yillari yoshlar hayotining eng muhim, rivojlanish davridir. Bu davrda yoshlar jismoniy va aktiv jihatdan kamolotga etadilar, hayot ma'nosini chuqurroq, anglaydilar, jamiyatda o'z o'rnini topish yo'lida izlanadilar. Xuddi ana shu davrda yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi. Binobarin, talabalik davri – orzu va ishonchlar, kelajakka intilishlar, bo'lajak rejalarining shakllanish davridir. Ana shu davrda yoshlar ijtimoiy mehnatni to'g'ri baholay

oladigan, mamlakat oldidagi vazifalarni, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligini, jamiyat boyliklarining qiymatini, Davlatimiz belgilab berayotgan vazifalarni to'g'ri anglashga intiladigan barkamol shaxsga aylanadilar. Yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba-qizlar bu xususiyatlarni ijtimoiy hayotda to'la namoyon etish imkoniyatiga egadirlar.

XULOSA

Xulosa qilganda, o'z milliy qobig'iga o'ralashib qolgan millatning kelajagi mahdudlikka mahkumdur. O'zbekiston xalqi ham turli davrlarda xorijiy mamlakatlarda shakllangan umuminsoniy ma'naviyatning sarchashmalaridan oziqlanib kelgan. Ayniqsa mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgach, jahon integratsiyasi madaniy va ma'naviy boyliklarini milliy xususiyatimizga mos keladigan jihatlari yoshlarimizni turmush va tafakkur tarzida o'z nufuziga ega bo'lib bormoqda. Yoshlarimizni bilimli qilib tarbiyalash jaholatdan uzoqlashish, madaniyatli, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lib voyaga etishishlari mezonidir. Shuning uchun hozirgi davrda mamlakatimiz ravnaqi yoshlarimizning intellektual salohiyati va ma'naviy kamolotiga bog'liq ekanligi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Большой толковый социологический словарь. COLLINS. Т. 1. – М.: «АСТ», 1991. – С. 182.
2. О.В.Шабурова Гендер. // Современный философский словарь. / Под общ. ред. доктора философских наук, профессора В.Е.Кемерова. – Лондон, Франкфурт-на Майне, Париж, Люксембург, Москва, Минск: «Панпринт», 1998. –С. 180–183.
3. Бок Г. История, история женщин, история полов. // «Женщина, мужчина, семья», 1994, №6. –С. 170–200.
4. D.Tursunova, The concept of social activity and its importance in social development. In international scientific and current research conferences 84-87, –2021.
5. D.Tursunova, Public activities and its persons. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 127-130, –2022.
6. N.Abdurahmonova, Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy ongning roli. – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, –2021.
7. M.Qodirova, Talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi va ularning shaxsiy rivojlanish omillari. // “Ijtimoiy tadqiqotlar” jurnali, №4, –2022.
8. D.Karimova, Oliy ta'lim tizimida gender yondashuv va ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish. – Toshkent: Fan, –2022.
9. N.Sodiqova, Ijtimoiy ong va ijtimoiy faoliyatning o'zaro aloqasi: nazariy tahlil. – Toshkent: “Ma'rifat”, –2019.
10. G.Raxmatullaeva, Talabalar ijtimoiy ongining rivojlanishida tarbiya omillari. – “Pedagogik ta'lim” jurnali, №2, –2021.